



AYOLLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING TARIXIY BOSQICHLARI.

Xaydaraliyeva Nafosat Xomidjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs talabasi

e-mail: xaydaraliyeva18@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda ayollar huquqlarini himoya qilish eng dolzarb mavzulardan biriga aylanib ulgurdi. Ayollar huquqlarini himoya qilish ayni davrda cho'qqiga chiqqan bo'lsa-da, bunday harakatlar dastlabki davrlardan boshlangan. Mazkur maqolada inson huquqlarini himoya qilishga doir harakatlar tarixi, ayollarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan sa'y-harakatlarning boshlanishi va natijalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, ayollar huquqlari, huquqlarni ta'minlash, gender tengligi.

Аннотация: В статье рассматривается история движений за права человека, истоки и результаты усилий по защите прав женщин.

Ключевые слова: права человека, права женщин, обеспечение соблюдения прав, гендерное равенство.

Abstract: This article discusses the history of human rights movements, the beginnings and results of efforts to protect women's rights.

Keywords: human rights, women's rights, ensuring rights, gender equality.



Ikkinchi jahon urushi va undan qolgan fojiali oqibatlar inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va xalqaro mexanizmlarni yaratishga olib keldi. Dastlabki inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro-huquqiy hujjatlardan biri 1776-yilgi **“Amerika Mustaqillik Deklaratsiyasi”** bo‘lib, mazkur deklaratsiyada barcha odamlar uchun zarur bo‘lgan asosiy huquq va erkinliklar ifodalangan edi. Oraqdan ko‘p vaqt o‘tmay qabul qilingan Fransiyaning **“Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi”** zodagonlarning siyosiy hukmronligiga qarshi chiqdi va insonlarning tengligi, erkinligini tan oldi. Garchi XIX va XX asrning boshlarida quldorlik bekor qilinib, insonlar ijtimoiy taraqqiyotda, ta’limni ta’minlashda va siyosiy huquqlarini kengaytirishda ko‘plab yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, insonning huquqlari hamon zaifligicha qolmoqda edi. Buning natijasida mamlakat oliy tabaqali kishilar siyosiy hokimiyatga ega bo‘lish, hukmronlik qilish va qonunlarni qabul qilishda ustuvorlikka ega bo‘lishdi. Ammo Ikkinchi jahon urushidagi vahshiyliklar va inson huquqlarining yuqori darajada buzilishi butun yer yuzasi bo‘ylab fikr-mulohazalarni kuchaytirib yubordi. Millionlab qochoqlar, millionlab qochqinlar, bir necha yuz minglab boshpanasiz aholi bilan tugagan 1945-yilgi urush keyingi mojarolarning oldini oladigan, dunyoni qayta qurish va inson huquqlarini ta’minlashga qaratilgan muhim tashkilot yoki qo‘mita tashkil qilinishini taqozo qilib qo‘ydi. Natijada, inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan avvalgi tashkilotlardan mutlaq farq qiluvchi, asosiy e’tibor va maqsadi kelajakda barcha uchun teng erkinlik, adolat va tinchlikni ta’minlashga yordam beruvchi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil qilindi. Qolaversa 1930-1940-yillar oralig‘ida natsistlar Germaniyasi tomonidan yahudiy millatiga mansub aholining yo‘q qilinishi va Holokostlar BMT nizomiga inson huquqlariga oid moddalar kiritishni talab qildi. Bu inson huquqlarini BMTning a‘zo davlatlari ichki masalalari emas, balki xalqaro miqyosdagi masalaga aylanishiga turtki berdi. Shu davrgacha inson huquqlari faqatgina muayyan bir davlat hududiga tegishli bo‘lgan bo‘lsa, XX asrga kelib bir



davlat yurisdiksiyasidan chetga chiqa boshladi. Faqat davlat emas, undan tashqari muayyan bir shaxs va shaxslar guruhi ham xalqaro huquq subyekti sifatida qarala boshlandi.

Aytish mumkinki, inson huquqlari faqatgina bir davlat yurisdiksiyasiga tegishli emas. Vaholanki, bir davlatda yoki butun yer yuzida faqatgina bir jinsga mansub shaxslar istiqomat qilmaydi. Har bir demokratik davlatda inson huquqlari ta'minlanishi bilan birga erkak hamda ayollarning huquqlari teng qilib qo'yiladi. Tarixan ma'lumki, ayollar hukmronligi davri tugashi bilan boshqaruv erkaklarning qo'liga o'ta boshlagan. Shu paytdan boshlab ayollarning jamiyatda tutgan o'rni o'zgardi. Ular faqat farzandlarni dunyoga keltirish, bola tarbiyalash, qo'yingki, butun uy yumushlari ularning qo'liga o'tib, erkaklarga moddiy va ma'naviy jihatdan qarab bo'lib qolgan. Ammo taraqqiyot rivojlanishi bilan ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda ko'zga ko'ringan masalalar kishilar hayotida tub burilish yasadi. Sanoatning rivojlanishi va urbanizatsiya jadallashuvi arzon ishchi kuchiga ehtiyojni yanada orttirdi. Bu esa ayollarning arzon ishchi kuchi sifatida jalb qilinishiga olib keldi. Tabiiyki, ayollarning huquqlari buzilishini bir ko'rinishini ifoda etuvchi mazkur holat ozodlik hissi, jamiyatga o'z ulushini qo'sha olishi, ishlab chiqarishda erkaklar kabi teng huquq va imtiyozlarga ega bo'lishi kabi g'oyalarning vujudga kelishiga sharoit yaratdi. Shunday pallada dastlab **1789-yilda fransuz faylasufi J.Kondorse "Ayollarga fuqarolik huquqini berish haqida"**gi nashrdan chiqqan maqolasida ayollarning jamiyat a'zosi, bir qismi ekanligi ta'kidlanib, ularga nisbatan munosabatlarni o'zgartirishni ilgari surdi. Oradan ikki yil vaqt o'tib, **1791-yilda Olimpiya de Guj "Fuqarolik va ayol huquqi deklaratsiyasi"**ni ishlab chiqdi. Mazkur deklaratsiya Fransiyada ayollar huquqlarini himoya qilishdagi birinchi chaqiriq hisoblandi. Shundan keyin Fransiyada xotin-qizlarning tengligi uchun kurashishga asoslangan fikrlarni ifoda etgan ilk maqola chop etildi. Undan oldinroq, **1595-yili Olmoniyada "Ayollarning odam emasligi haqida dissertatsiya"** kitobi nashr qilingan edi.



Mazkur kitob nashrga chiqmasidan oldin ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi va asoslangan oqilona dalillar va ishonchli xulosaga kelindi: ayol inson emas. Risolaning asl konteksti qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, u ayollarning pozitsiyasi haqidagi Yevropaning qizg‘in munozaralarida o‘rin egallagan.

Xotin-qizlar dastlab siyosiy kurashlarda faol qatnashdi chunki ularning sa’y-harakatlarining asosiy maqsadi erkaklar bilan siyosiy huquqqa ega bo‘lishga qaratilgan edi. Biroq buning uchun ulardan juda katta kuch talab qilinardi: oliy ma’lumot olishi, erkaklar bilan teng ishlab, teng haq olishi va boshqalar. O‘ta murakkab sanalgan hodisa XX asrda AQSH Konstitutsiyasi qayta tahlil etilib, ayollarning saylash va saylanish huquqiga ega ekanliklari e’tirof etildi¹. Mazkur yangilik ayollar huquqlarini xalqaro miqyosda tarqalishiga va himoya qilinishiga zamin yaratdi. Ammo bugungi va yaqin o‘tmishdagi murakkab globallashuv davrida insonning ajralmas huquqlari sifatida ayollarning huquqlariga rioya etish va ularni ta’minlash jahon hamjamiyatini o‘ylantirgan va o‘ylantirmoqda. Agar statistika ma’lumotlariga nazar tashlasak, jahondagi ayollarning 31% i, ya’ni aholining uchdan bir qismi zo‘ravonliklarga uchraydi. Odam savdosi qurbonlarining sonini qariyb 49% ini ayollar, voyaga yetmagan qizlar bilan hisoblaganda 72%ini tashkil etadi. O‘rtacha hisobda 78% ayol-qizlar ko‘pincha jinsiy ekspluatatsiya maqsadlarida sotiladi. 2019-yilgi statistik ma’lumotlariga qaraganda 67 milliondan ortiq 20-24 yoshgacha bo‘lgan qizlar 18 yoshga to‘lmasidan turmush qurgan. Tabiiyki, erta nikoh erta homiladorlik, oiladagi ayrim tushunmovchiliklar, 18 yoshga to‘lmaganini hisobga olganda maktabdagi o‘qishdan orqada qolish hamda zo‘ravonliklar xavfini yanda kuchaytiradi. Raqamlarga va ma’lumotlarga e’tibor qilsak, zo‘ravonliklarning aksariyat qismini jinsiy zo‘ravonliklar tashkil etadi. Bu esa juda ayanchli holat. Bugungi kunda bu va bu kabi holatlarni oldini olishga qaratilgan bir necha tashkilot va agentliklar o‘z



faoliyatini yuritmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ayollar taraqqiyotida haligacha bo'shliqlar borligini aniqladi va o'zining Mingyillik Rivojlanish Maqsadlarida jamlangan bir nechta maqsad ichiga ayollar huquqlarini himoya qilish maqsadini ham qo'shdi. Ushbu maqsad boshqa maqsadlardan farqli ravishda kengroq tushuncha bo'lib, jinsga qarshi zo'ravonlikka, bolalar nikohiga barham berish, reproduktiv salomatlarikdan foydalanish, ta'lim olishda teng imkoniytlarni ta'minlash, iqtisodiy imkoniyatlarini ko'paytirish kabilarni o'z ichiga oladi

Umuman olganda inson huquqlarini himoya qilishda dastlab davlatlarning ichki hujjatlariga, ya'ni konstitutsiyasiga urg'u beriladi. **Amerika Qo'shma Shtatlarining konstitutiya**siga nazar tashlaydigan bo'lsak, konstitusiyaning **19-tuzatishida** quyidagi norma keltirilgan: *"Amerika Qo'shma Shtatlari fuqarolarining ovoz berish huquqi Amerika Qo'shma Shtatlari yoki biron bir shtat tomonidan jins sababli rad etilmaydi yoki qisqartirilmaydi"*. Mazkur normadan shunday mazmun tushuniladiki, AQSH shtatlarining hech birida fuqarolarning ovoz berish huquqi ularning ayol yoki erkakligi sababli rad etilmaydi yoki ayolligi sababli hokimiyatga saylanishga yo'l qo'yilmasligini oldini oladi.

Demak, **"Ayollarning iqtisodiy-siyosiy, kasbiy huquqlarini himoya qiluvchi tashkilot"**ga ilk bor **1871-yil 18-martda Parij Kommunasida** tashkil topgan davrda asos solingan edi. Ikkinchi jahon urushi tugagach esa, jahonda birinchi yirik tashkilot – **Xalqaro Demaokratik Xotin-Qizlar Tashkiloti** tuzildi. Mazkur tashkilot jahondagi barcha xotin-qizlar harakatiga boshchilik qilib, bir necha bor ayollar muammosiga bag'ishlangan xalqaro kongresslarni, jumladan, **1945-yil noyabr oyida Parijda, 1948-yil dekabrda Budapeshtda, 1953-yil iyunda Kopengagenda, 1958-yil iyun oyida Vena shahrida** o'tkazishga muvaffaq bo'ldi. Shundan so'ng ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir nechta xalqaro konferensiyalar tashkil etildi. Jumladan,



- 1975-yil Meksikada I butunjahon Ayollar Konferensiyasi va “Xotin-qizlar yili” deb e’lon qilindi;
- 1976-1985-yillarda BMT tomonidan “Tenglik, Taraqqiyot, Tinchlik” shiori ostida Ayollar o’n yilligi deb e’lon qilindi;
- 1980-yil Daniyada II Butunjahon Ayollar konferensiyasi;
- 1985-yil Keniyada III Butunjahon Ayollar konferensiyasi;
- 1995-yil Xitoyda Ayollar holati bo’yicha IV Butunjahon konferensiyasi Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi;

1995-2004-yillar BMT Bosh Assambleyasining 49-sessiyasida “Inson huquqlari ta’limining o’n yilligi” deb e’lon qilindi.

Yuqoridagi ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan konferensiyalardan tashqari va keyin bir qator hujjatlar qabul qilingan. Ularning asosiy maqsadlari nafaqat ayollar huquqlarini himoya qilibgina qolmay inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Mazkur hujjatlarning zahirida albatta BMT yotadi. Shunga muvofiq **2010-yil iyul oyida BMT Bosh Assambleyasi BMT Ayollar tashkilotini** tuzdi. Mazkur tashkilot ayol-qizlarning huquqlarini himoya qiluvchi, o’z salohiyatlarini to’liq ro’yobga chiqarishni ta’minlaydigan dasturlar va standartlarni taqdim etuvchi tashkilotdir. BMT ga a’zo davlatlar tashkilotining gender tengligi va ayollar huquqlarini kengaytirish bo’yicha maqsadlarni jadallashtirish yo’lida tarixiy qadam tashlandi va faqat gender tengligi va ayollar huquqlarini kengartirishga qaratilgan to’rtta tizimdan iborat:

- Ayollar taraqqiyot bo’limi (DAW);
- Ayollar malakasini oshirish xalqaro tadqiqot va o’qitish instituti (INSTRAW);
- Gender masalalari va ayollar taraqqiyoti bo’yicha maxsus maslahatchi idorasi (OSAGI);



- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ayollar uchun taraqqiyot jamg'armasi (UNIFEM)

Shuningdek, mazkur qo'mita gender tengligi (ayollar huquqlari)ga erishish uchun global standartlarni belgilashda qo'llab-quvvatlaydi, ularni amalga oshirish va butun dunyoda ayollar foydasiga qaratilgan qonunlar, siyosatlar, dasturlar va xizmatlarni ishlab chiqishda hukumat va jamiyat bilan global miqyosda ishlaydi. Tashkilotning yurgizayotgan siyosati natijalaridan ayollar hayotning barcha jabhalarida teng ishtirok etib kelishi ko'zda tutilgan. Jumladan, ayollar boshqaruv tizimlariga rahbarlik qilishadi, ularda ishtirok etishadi hamda erkaklar bilan teng miqdorda foyda olishadi; daromad xavfsizligi, munosib mehnat va iqtisodiy mustaqillikka ega; zo'ravonliklardan xoli hayot kechirishadi; ayollar va qizlar barqaror tinchlik va barqarorlik o'rnatishga hissa qo'shadilar va ko'proq ta'sir ko'rsatadilar hamda tabiiy ofatlar va mojarolarning oldini olish hamda insonparvarlik harakatlaridan teng foyda olishadi. Qo'shimcha ravishda aytish mumkinki, BMT Ayollar tashkiloti 2030 kun tartibi bilan bog'liq barcha muhokama va kelishuvlarda faoliyatlarini muvofiqlashtiradi va bugungi kunda bu tashkilot gender tengligi (ayollar huquqlari)ni Barqaror rivojlanish maqsadlari va inklyuziv dunyo uchun asos sifatida joylashtirish ustida izlanish olib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Feminizm. <https://oyina.uz/uz/teahause/1100>
2. Information about Women's Rights. <https://www.globalfundforwomen.org/womens-human-rights/>
3. Full Text of the U.S. Constitution. <https://constitutioncenter.org/the-constitution/full-text>
4. Women are not Human Beings. <https://nordicwomensliterature.net/2011/08/26/women-are-not-human-beings/>



5. Shamsiyeva M.X. Gender tenglik. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. //2015. <https://newjournal.org/01/article/view/12565>
6. Aziza Rixsivoevna Sultonova. Yangi O‘zbekistonda ayollar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro harakatning tarixiy taraqqiyoti. <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-o-zbekistonda-ayollar-huquqlarini-himoya-qilish-bo-yicha-xalqaro-harakatning-tarixiy-taraqqiyoti>
7. UN Committe Sides Against Russia in First Domestic Violence Ruling. <https://www.themoscowtimes.com/2019/04/12/un-committee-sides-against-russia-in-first-domestic-violence-ruling-a65226>
8. UN Women – Headquarters. <https://www.unwomen.org/en>